



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI TIJORATLASHTIRISH PARADIGMASI O'ZGARISHI

Nazarov Jasurbek Azamat O'gli

Toshkendagi Singapur Menejmentini rivojlantirish instituti 3-bosqich talabasi,
nazarovjasurbek2005j@gmail.com

Annotatsiya: Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XXI asrning asosiy paradigmlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunday iqtisodiyotda asosiy e'tibor ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, inson kapitali, ya'ni bilim, ko'nikmalar, salohiyat va innovatsiyalar iqtisodiyotning muhim omili hisoblanadi. Inson kapitali tijoratlashtirish jarayoni yangi yashil iqtisodiyot sharoitida yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini tijoratlashtirish paradigmasining qanday o'zgarishi, ushbu jarayonning qiyinchiliklari va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, yashil texnologiya, innovatsion salohiyat, inson kapital, inson kapitalini tijoratlashtirish, ijtimoiy mas'uliyat.

Yashil iqtisodiyot - ekologik barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan iqtisodiy transformatsiyalarning yig'indisidir. Ushbu kontsepsiya ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillarni integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishni rag'batlantirishni ko'zlaydi. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyati va samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitalining sifatiga va uning yashil iqtisodiyotga moslashtirilishiga bog'liqdir.

Bugungi kunda iqtisodiyot barqarorligining muhim omillaridan biri inson kapitali hisoblanadi. Shu munosabat bilan inson kapitalini, uni boshqarish samaradorligi va tijoratlashtirish darajasini baholash zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birgalikda qo'shimcha qiymatni shakllantirish jarayoni inson tomonidan yaratilgan aniq axborot va bilim resurslariga asoslanadi. Inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish, shuningdek, innovatsion o'zgarishlar va inson kapitalini qo'llab-quvvatlash ekologik, iqtisodiy barqarorlikni va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda strategik jihatdan hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir", –deya ta'kidladi Prezidentimiz. "Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz"[1]. E'tibor beradigan bo'lsak,



so'nggi yillarda respublikamizda inson taraqqiyotiga e'tibor kuchaydi, chunki, cheklangan resurslar, jumladan, tabiiy resurslar, mehnat va kapitaldan maksimal foyda olishga asoslangan an'anaviy iqtisodiy fikrlar va tushunchalar o'z ahamiyatini kun sayin yo'qotib bormoqda.

Bugungi kunda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, jumladan, bunda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga etkazish, sanoatda «yashil sertifikat»lar bozorini rivojlantirish va «ekologik markirovkalash» amaliyotini joriy qilish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish [2] va boshqalar respublikamizda yashil iqtisodiyot sharoitida hal qilinishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot tabiat va iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi. Bu esa an'anaviy iqtisodiyot modellaridan tubdan farq qiladi. Inson kapitali yashil iqtisodiyotda o'zining markaziy o'rnini saqlab qoladi, chunki innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va barqaror biznes modellari inson salohiyatiga bog'liq.

Inson kapitalining asosiy unsurlari quyidagilardir:

- **Bilim va ko'nikmalar:** Yashil texnologiyalarni joriy qilish va qo'llash uchun maxsus bilim va ko'nikmalar zarur.
- **Innovatsion salohiyat:** Yangi texnologiyalar va jarayonlarni rivojlantirish inson kapitalining innovatsion imkoniyatlariga tayanadi.
- **Ijtimoiy va ekologik ong:** Yashil iqtisodiyot sharoitida insonlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni ham e'tiborga olishlari zarur.

Inson kapitalini tijratlashtirish bu – bilim, ko'nikma va innovatsiyalarni iqtisodiy qiymatga aylantirish jarayonidir. Bu jarayon ilm-fan va texnologiyalarni ishlab chiqarishga, yangi mahsulotlar va xizmatlarga aylantirish orqali amalga oshiriladi. An'anaviy iqtisodiyotda inson kapitalini tijratlashtirish sanoat va texnologiya sohalarida asoslangan bo'lsa, yashil iqtisodiyotda bu jarayon ko'proq ekologik innovatsiyalar bilan bog'liq.

Yashil iqtisodiyotda inson kapitalining tijratlashtirilishi birinchi navbatda innovatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Barqaror rivojlanishga qaratilgan innovatsiyalar yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratishga yordam beradi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari – bularning barchasi yashil innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, inson kapitali bilan bevosita bog'liqdir.



Yashil iqtisodiyotning bir qismi bo'lgan ijtimoiy innovatsiyalar inson kapitalini tijoratlashtirishning yangi usullarini taqdim etadi. Ijtimoiy mas'uliyatni inobatga olgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yangi bozorlar va imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy innovatsiyalar o'z-o'zini ta'minlash, adolatli mehnat sharoitlari va barqaror hayot tarziga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunga kelib, amalga oshirilayotgan innovatsion islohotlar jarayonida yashil texnologiyani rivojlanishida inson kapitalining o'rni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, ta'lim va sog'lom inson kapitalini yashil iqtisodiyotdagi, jumladan, yashil texnologiya innovatsiyasidagi o'rniga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Yashil texnologiya innovatsiyasi texnologik taraqqiyot va energiyani tejash masalalarida foyda keltirishi mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Tahlillarga ko'ra, yurtimizda quyosh va shamol energiyasi salohiyati elektrga bo'lgan hozirgi ehtiyojni 10-12 barobar ortig'i bilan qoplashga yetarli ekanligi aniqlangan. Shunday ulkan imkoniyatni ishga solish masalasiga ancha yillar davomida e'tibor berilmay kelingan, lekin so'nggi yillarda bu sohada huquqiy baza yaratilganligi sababli investorlar uchun jozibador muhit shakllandi.

“Yashil energiya” manbalarini barpo qilish bo'yicha yurtimizda katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga qadar sohaga 2,1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya kiritilgan, 2024 yilda 13 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Yashil iqtisodiyotda tijoratlashtirish jarayoni tadbirkorlikka ham ta'sir ko'rsatmoqda. Barqaror tadbirkorlik, ya'ni ekologik mas'uliyatli biznes modellarini joriy qilish, bozor talablariga javob beruvchi innovatsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Inson kapitali bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, chunki barqaror biznes modellarni yaratish uchun kerakli bilim va tajriba zarur.

Inson kapitalini tijoratlashtirishning qiyinchiliklari quyidagilardan iborat:

- **Bilim va ko'nikmalar yetishmasligi.** Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun kerakli bilim va ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Ekologik innovatsiyalarni joriy qilish uchun mutaxassislar va texnik kadrlarning yetishmasligi bu jarayonning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.
- **Moliyalashtirish.** Inson kapitalini tijoratlashtirish ko'pincha moliyaviy resurslarga bog'liq. Innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun katta sarmoyalar talab etiladi. Yashil iqtisodiyotda barqaror texnologiyalar va yechimlarni moliyalashtirish qiyin bo'lishi mumkin, chunki bunday loyihalar uzoq muddatli va yuqori xavfga ega.



- Huquqiy va tartibga solish to'siqlari. Yashil iqtisodiyot sharoitida tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy va tartibga solish muhitining moslashuvchan bo'lishi muhimdir. Ammo ba'zi davlatlarda tegishli qonunchilik va tartiblar yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin, bu esa inson kapitalini tijoratlashtirish jarayoniga to'sqinlik qiladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida tijoratlashtirish imkoniyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Yangi texnologiyalar va bozorlar. Yashil iqtisodiyot innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi bozorlarni ochish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish materiallari, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligi sohalarida inson kapitali tijoratlashtirilishi mumkin.
- Ijtimoiy mas'uliyat va korporativ barqarorlik. Korporativ darajada ijtimoiy mas'uliyat va ekologik barqarorlikka qaratilgan strategiyalar inson kapitalini tijoratlashtirishning yangi usullarini ochib beradi. Yashil iqtisodiyotda mas'uliyatli kompaniyalar o'z mijozlariga va investorlarga ekologik masalalarga qaratilgan innovatsiyalarni taklif qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.
- Hukumat ko'magi va xalqaro hamkorlik. Ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash maqsadida rag'batlantiruvchi choralar ko'rmoqda. Bu esa inson kapitalini tijoratlashtirish uchun katta imkoniyatlarni yaratadi. Xalqaro tashkilotlar va davlatlar o'rtasida ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorliklar inson kapitalining tijoratlashtirilishiga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini tijoratlashtirish an'anaviy iqtisodiyotdagi yondashuvlardan farqlanadi. Ushbu jarayon ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Innovatsiyalar, ijtimoiy tadbirkorlik va barqaror biznes modellar inson kapitalining tijoratlashtirilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bilim va ko'nikmalar yetishmasligi, moliyalashtirish va huquqiy muammolar kabi qiyinchiliklar ham mavjud. Inson kapitalining tijoratlashtirilishi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy omil bo'lib qoladi.



Learning and Sustainable Innovation

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [illegible]